



Soliyev Abdusalom Raximovich

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim  
ijtmoiy-gumanitar fanlar kafedrasasi o'qituvchisi

## MAKTAB O'QUV DASTURLARIDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINI O'QUVCHILAR HAYOTDA TUTGAN O'RNI

**Annotation.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'quvchilarga hayotida tutgan o'rni, xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon xaqidagi o'y-fikrlari o'z ifodasini topgan.

**Аннотация.** В статье реч идет об образе жизни людей, общественной и бытовой жизни, трудовой деятельности, взглядах на природу и общество, верованиях и религиозных представлениях, чувствах к людям и миру, художественном мире, уровне знаний, счастливом и справедливом времени на примерах народного творчества. мысли выражаются.

**Annotation.** The article deals with the way of life of people, social and everyday life, labor activity, views on nature and society, beliefs and religious beliefs, feelings for people and the world, the artistic world, the level of knowledge, a happy and fair time on the examples of folk art. thoughts are expressed.

**Kalit so'zlar.** An'ana, moddiy, havaskorlik, og'zaki, teatr, kasbiy, jonli, daraja, dor, yog'och, tomosha, o'yin, raqs, qo'g'irchoqbozlik, ijtimoiy, xalq.

**Ключевые слова.** Традиционный, материалный, любительский, устный, театральный, профессиональный, живой, дипломный, виселичный, деревянный, зрелищный, игровой, танцевальный, кукольный, социальный, народный.

**Keywords.** Traditional, material, amateur, oral, theatrical, professional, live, diploma, gallows, wooden, spectacular, game, dance, puppet, social, folk.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy barqarorlik tufayli mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilinishda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'quvchilarga milliy boy qadriyatlarini va madaniyatlarimiz bilan tanishtirish, madaniyat va san'atga bilimlarini egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish malakalarini oshirib, ko'p asrlik ma'naviy boyliklarimzni va madaniy merosini chuqur o'rgatishda, milliy o'zligini anglashda, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirishda jahon musiqa san'ati kompozitorlarini ijodlar katta o'rni tutadi.Ular yaratgan madaniy musiqa asarlari yoshlar tarbiyasida do'stlik va birodarlik tuyg'ularini singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu san'at namuna asarlar bolalarni iqtidori, is'tedodi, tafakkuri va musiqiy qobiliyatlarini o'stirish bilan bir qatorda ularda axloq, baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish fazilatlarini o'rgatadi.

O'zbek xalq musiqasi xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi, ya'ni folklor, xalq musiqasi, ya'ni musiqa folklori, xalq teatri, jumladan tomosha san'ati, xalq o'yinlari, ya'ni raqs, qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, jumladan xalq sirkilar musiqa folklorini mahsulidir. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroti bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallahib, sayqallahib, tobora an'anaviy়lashib borgan va nihoyat, kasbiylik, ya'ni professionallik xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon xaqidagi o'y-fikrlari o'z ifodasini topgan. Xalq



ijodi qadimdan rivojlanib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotinint kuchaya borishi bilan xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, kiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o'ymakorlar, kashtado'zlar va xalq san'ati yuzaga kelgan, ishqibozlar paydo bo'lgan. Ammo uning yaratilishi va o'zlashtirilishida ko'pchilikning ishtiroti, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe bo'lishi saqdanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy hatti-harakat, yangilik barqaror an'analar va ustoz-shogird munosabatlari doirasida ro'y bergan. Bir tomondan, an'analarning o'zi rivojiana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar nushalari yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan. Xalq ijodi mukammal san'atning yuzaga kelishi va rivojida katta o'rinn tutadi. O'z navbatida, mukammal san'at ham xalq ijodi rivojiga ta'sir ko'rsatib, uni boyitib kelmokda. Jamiatda xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo'qolganlarini tiklash extiyoji o'zining nafis talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo'lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umum davlat miqyosidagi muzeylelar qo'riqxonalarning ishlayotganligi, xalq ijodi namunalarining ilmiy o'rganilishi va nashr etilayotganligi, ko'plab follar-ethnografik ansambllarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdig'idir.

Musiqashunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatatlilik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa ta'limi alohida o'rinn tutadi. Shu fikriga tayangan holda aytish mumkinki, bola shaxsini ma'naviy-axloqiy shaknlantirish bevosita musiqa, uning zng sharqona janri bo'lgan xalq qo'shiqlari orqali muvoffaqiyatli amalga oshiriladi. Ma'naviy-axolqiy meyorlarni bolalarga singdirish uchun, eng avvalo, ularni ma'naviy-axloqiy tushunchalar bilan tanishtirish lozim bo'ladi. Mutaxasislar fikriga tayanib, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilish;
- 2) ma'naviy-axloqiy fikr yuritish;
- 3) ma'naviy -axloqiy xulosalar chiqarish.

Ma'naviy-axloqiy meyorlar sahiylik, oqko'ngillilik, yaxshilik, hurmat, xayrixohlik, ma'suliylilik, mehnatsevarlik kabi atamalarning mazmunini bilib olish, o'z faoliyatida unga amal kilishni anglatadi. Ma'naviy-axloqiy tushunchalarning mohiyatini aniq his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy hulosasini chiqarib olishi lozim. Ma'naviy-axloqiy meyorlarni ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdир. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega. Ma'navyy-axloqiy meyorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilgandagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy xatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan da'vatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida orttirgan tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalari mahsulidir. Xalqning har bir aytgan gapi «o'q» va uni o'qib olmagan kishi hayotda pand yeyishi tabiiydir. Ma'navyy-axloqiy tushun-chalarni bilib olish, kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

Bola shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaralgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir. Xalq qo'shiqlari o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi. Bevosita unga ergashadi, qo'shilishib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklab ketadi. Xalq qo'shiqlari faqat estetik joziba



olami bo'libgina qolmay o'ziga xos katta bir ta'lim-tarbiya quroli hamdir. Chunki, inson his-hayajonining zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hislar, hulosalar ham yotadi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida bolalar-ning yangidan yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa bolada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalgalashga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning bolalik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Pedagog olimlarning fikrlariga, tayangan holda aytish mumkinki, xalq qo'shiqlari vositasida bolalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish to'rt asosiy yo'naliш bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- 1.O'z ona Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi.
- 2.Bolalarning mehnat, kishilar va ular tomonidan yaratilgan ne'matlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish.

3.Bolaning jamiyat a'zolari, qarindoshlari va uni o'rabi turgan tengdoshlariga bo'lgan munosabati.  
4.Uning shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini qaror toptiradi.

O'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy-ma'naviya-timizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri - yosh avlodga ajodolarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlanishiga borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyagini his etishga o'rgatishdan iboratdir. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni bolalarning Vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbati kabi, serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy manbalar bolada ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir.

Bolalarning ma'naviy fazilatlari ularning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabi ko'pqirrali tarkibiy qismlaridan iborat. Musika ta'limi jarayonida ma'naviy fazilatning tarkibii qismlari bola ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Xalq qo'shiqlari vositasida bolalarda insonparvarlik, sadoqat, qanoat, mehr-muhabbat, adolatpar-varlik, nafosat, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va xuquqni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.K.Rahmonov. Yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda baxshichilik san'atining o'rni. Oriental art and culture scientific-methodical journal. issn:2181-063x. volume 3 issue 1. march 2022.
2. U.K.Rahmonov. Sozandalar san'atida milliy cholg'ularning o'rni. Oriental art and culture scientific-methodical journal. issn:2181-063x. volume 3 issue 2. june 2022.
3. U.K.Rahmonov. O'zbek xalq musiqa san'atining XVI-XIX asrlar rivojidagi ilhombaxsh ohanglari. Science and innovation international scientific journal. issn:2181-3337. volume 1, issue 7. 11.11.2022.
4. 13.Soliyev A.R. O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganishda an'anaviy ijrochilik san'atini o'rni. Oriental Art and Culture, 4(2), 689-693.2023 yil
5. A.R.Soliyev. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada o'zbek xalq qo'shiqlari va qarsak aytimlaridan foydalanish. Oriental Art and Culture, 4(2), 669-676. 2023 yil.
6. U.K.Rahmonov. A.R.Soliyev. Sozandalik san'atining barmoqdagi nolalari. innovative developments and research in education, 1(12), 109-119. 2022 yil.
7. A.R.Soliyev. The role of national instruments in forming a harmonious generation in preschool educational institutions. Science and Innovation, 1(1), 637-646. 2022 yil.
8. L.Tursunova. Yoshlar musiqa madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini hayotga tadbiq etish. Eurasian journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. ISSN:2181-2888. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7964684> 6 January 2023.P- 23-34.



9. L.Tursunova. Musiqa madaniyati tushunchasi mazmun-mohiyati, tarkibiy va konseptual asoslari. Theoretical aspects the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference 09.09.2023. P-20-23.
10. <https://doi.org/10.5281/Zenodo.8330818>
11. L.Tursunova. Of children through the art of music spiritual, esthetic and moral taste qualities explain the content and find. International journal of advanced research in education, technology and management. Published in VOLUME 2| ISSUE 4| ISSN:2349-0012 2023.19.04. P-259-277.
12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7899255>